

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALISED
EDUCATION
BUKHARA STATE UNIVERSITY

English Linguistics Department

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS,
FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND
LANGUAGE TEACHING PROCESSES

(dedicated to the 75th anniversary of Candidate of Philological Sciences,
Associate Professor M.Kh.Alimova)

Proceedings of International Scientific-theoretical Webinar



2020-YIL
25-DEKABR



SOAT 10:00

Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrası

“PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL TARJIMASHUNOSLIK VA TIL O'RGATISH JARAYONLARI
INTEGRATSIYASI”

(Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.H.ALIMOVA tavalludining 75 yilligiga bag'ishlanadi)
mavzusida tashkillashtirilgan Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman



QAYSI TILLARDA
O'ZBEK, RUS, INGLIZ



Manzil: Buxoro davlat universiteti,
Buxoro shahar M.Iqbol ko'chasi
11-uy.

BUKHARA -2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

Инглиз тилшунослиги кафедраси

**ПРАГМАЛИНГВИСТИКА, ФУНКЦИОНАЛ
ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ТИЛ ЎРГАТИШ
ЖАРАЁНЛАРИ ИНТЕГРАЦИЯСИ**

(Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова таваллудининг 75
йиллигига бағишланади)

**мавзусидаги Халқаро миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-назарий конференция материаллари
ТЎПЛАМИ**

2020 йил, 25 декабрь

**Бухоро
"Дурдона" нашриёти
2020**

УЎК 81'373

81.1-3

Г 13

Прагмалингвистика, функционал таржимашунослик ва тил ўргатиш жараёнлари интеграцияси (Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова таваллудининг 75 йиллигига бағишланади): мақола ва тезислар тўплами, тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: М.А.Шукурова, О.И.Жумаева, И.И.Акрамов; Бухоро; “Дурдона” нашриёти, 2020 йил, 574 бет.

КБК 81.1-3

Тўпланда республикамиз олимлари, катта илмий ходим-изланувчилари ва мустақил изланувчиларининг хорижий тилларда ўқув ва бадий адабиётлар, электрон дарсликлар, ихтисослаштирилган расмлар билан безатилган газеталар ва журналларни яратиш ҳамда чоп этиш самарадорлигини ошириш, ёшларда чет тилни эгаллаш даражаларининг Европа тизими (CEFR)ни ўрганишнинг ўрни, ёшларга чет тилини ўргатишнинг психологик аспекти, чет тилини ўрганишда тил хусусиятларининг аҳамияти ва муаммолари, тил ва маданиятлараро коммуникация методлари, тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари, услубшунос олимларнинг илғор тажрибаларининг роли каби масалалар талқинига бағишланган мақолалари ўз ифодасини топган. Тўпланда тил муаммолари билан қизиқувчи илмий ходимлар, катта илмий-ходим изланувчилар, мустақил тадқиқотчи-изланувчилар, магистрантлар ва ўқувчилар фойдаланишлари мумкин.

Таҳрир хайъати:

Проф. О.Х.Хамидов, доц. О.С.Қаҳҳоров, проф. М.Қ.Бақоева, проф. Д.С.Ўраева, доц. М.М.Жўраева, доц. З.И.Расулов (масъул муҳаррир), М.А.Шукурова (масъул котиба)

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

Инглиз тилшунослиги кафедраси ўқитувчилари: М.А.Шукурова, О.И.Жумаева, И.И.Акрамов;

Тақризчилар:

Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова
Филология фанлари номзоди, доцент Н.Б.Бакаев
Филология фанлари номзоди, доцент З.Б.Тошев

Тўпланим БухДУ Хорижий тиллар факультети кенгашида муҳокама қилинган ва нашрга тавсия қилинган (2020 йил 24 декабрдаги 5-сонли баённома)

ISBN 978-9943-6197-4-6

INGLIZ VA O`ZBEK XALQ ERTAKLARI QIYOSIY TAHLILI («THE LITTLE BULL-CALF» VA «BO`Z BOLA» ERTAKLARI MISOLIDA)

*S.H.Axmedova,
tayanch doktorant (BuxDU),
K.Razoqova,
talaba (BuxDU)*

Annotatsiya. mazkur ishda ingliz va o`zbek xalq ertaklari («The Little Bull-Calf» va «Bo`z bola») qiyosiy tahlil qilingan bo`lib, ulardagi o`gaylik va yetimlik munosabatlari, o`gay qiz , o`g`il va o`gay ona, o`gay ota tipidagi turkum ertaklar motivlari asos qilib olingan.

Annotation. English and Uzbek folk tales («The Little Bull-Calf» and «Boz bola») are compared in this work, the relationship between stepmother and orphan, the motives of a series of fairy tales about stepfathers, stepmothers and stepchildren are chosen as the basis.

Аннотация. в данной работе проведён сравнительный анализ английских и узбекских народных сказок («The Little Bull-Calf» и «Bo`zbola») на основе взаимоотношений отчима и сироты, мотивов серии сказок по типу падчерицы, сына и мачехи, отчима

Kalit so`zlar: folklor,ertak, motiv, syujet, o`gay ona, o`gay qiz, yordamchi qahramon

Key words: folklore, fairy tale, motif, plot, stepmother, stepdaughter, helper

Ключевые слова: фольклор, сказка, мотив, сюжет, мачеха, падчерица, помощник

Ingliz xalq ertaklarida ham boshqa xalq ertaklarida bo`lgani kabi mehnatsevarlik, kamtarinlik, aql-zakovat, odamiylik, topqirlik, epchillik, jasorat, qahramonlik kuylanadi, dangasalik, tanballik, manmanlik kulgu ostiga olinadi, shafqatsizlik, adolatsizlikqattiq muhokama qilinadi. Ingliz xalq sehrli ertaklari o`ziga xosligi, turfaxilligi bilan ajralib turadi. Bunda to`qima qahramonlar, sehrli va og`ir vaziyatdan xalos etuvchi parilar, maxluqlar tasviri, ertakning baxtli va murodbaxsh yakuni, romantikasi o`ziga xos takrorlanmas o`ringa ega.

O`zbek xalq ertaklari ham o`zining boy va mukammal syujeti, barkamol badiiyati, barqaror kompozitsion qurilishga egaligi va ommaviyligi bilan jahon folklorida o`z o`rniga ega. Ularda xalqning odamiylik xislatlari, qadimiy urf-odatlar, marosimlari va ajdodlarning namunali hayot tarsi hal qiluvchi rol o`ynagani tufayli xalq milliy qiyofasi butun bo`y-basti bilan gavdalangan bo`ladi. Shu sababli ular, uzoq asrlardan beri tarixchilar, qadimshunoslar, etnologlar, o`lkashunoslar va adabiyotchilar, folklorshunos va tilshunoslarning diqqatini o`ziga rom etib kelmoqda.

Ingliz va o'zbek xalq ertaklari orasida o'xshash mavzularni ko'plab uchratish mumkin. Bu jihatdan ertakdagi o'xshash mavzular sayyor syujetlar qatoriga kiritiladi. Bu syujetlardagi o'xshashlik, milliy jihatlardagi moslik adabiy aloqalar sohasida o'rganilishi kerak bo'lgan muhim masalalardan biridir. Chunki har bir millat va elat vakili o'z tarixida boshqa millat vakili tarixi namunalarini uchratishi mumkin.

O'gay qiz va o'gay ona tipidagi turkum ertaklar necha asrlardan buyon o'quvchilarni mungli va achinarli motivlari bilan o'ziga jalb etib keladi. O'gay qiz tipidagi ertaklarning obraz va motivlar tizimi real haqiqat, hayotiy voqealar, o'gaylik an'analari va yetimlik bilan bog'liq qadimiy tushunchalar atrofida yuzaga kelib ta'limiy-estetik funksiyalarni ado etadilar.

O'gay qiz bilan o'gay ona obrazlarini bir-biriga «begona» deb zid qo'yish va ajratish ma'lum bir zamon mahsuli, aniqrog'i o'zaaro ziddiyat, turmush qarama-qarshiliklari, jamiyatning ibtidoiy bosqichiga oid shart-sharoitlarning mafkuraviy qarashlari zahirida vujudga kelgan.

Mazkur tipdagi ertaklarning asosiy xususiyatlari avvalo o'gaylik mavzui hamda o'gaylikni hikoya qiluvchi voqealar silsilasi, syujetlar xarakteri, qolaversa ishtirok etuvchi personajlar tizimi, har bir obrazning ayrim jiatlari hamda voqea hodisalarning xayoliy uydirmalar, to'qimalar asosiga qurilganligi, ta'limiy didaktik g'oyalari bilan belgilanadi.⁹⁴

Ingliz va o'zbek o'gay qiz turkumli ertaklarining o'ziga xos va asosiy o'xshashligi shundaki, ikkala millat ertaklarida ham asosiy funksiyasi to'rt xil bo'lgan personajlar ishtirok etadi. Bular – o'gay qiz, raqib personaj – o'gay ona. Ingliz xalq ertagi «The Little Bull-Calf»da sehrli vositalar bilan ta'minlovchi sehrgar pari qatnashsa, o'zbek xalq ertagi «Bo'z bola»da mehribon echki timsollarida namoyon buladi. «Bo'z bola» hamda «The Little Bull-Calf» ertaklarini qiyoslaydigan bo'lsak, ikkalasida ham mushtarak g'oya, ya'ni o'gay qiz ezgulik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bo'z bola va Kichik bolakay obrazlarining ertakdagi asosiy vazifalari o'gaylik va adolatsizlik, yovuzlik va insofsizlikka qarshi chiqishi bilan belgilanadi. Ikki xalq qahramoni ham odobli, aql-idrokli, o'ta haqgo'y, irodali, qat'iyatli, adolatparvar, mehnatsevar, garchi o'gay onalari va otalari tazyiqi bilan achinarli hayot kechirayotgan bo'lsalar-da, kelajakka ishonch ruhi bilan to'la bo'lgan pokiza qalb egalari.

O'gay o'g'ilni tahqirlash turli ertaklarda turli xil tasvirlanadi. «The Little Bull-Calf» da quyidagicha:

«Now this little boy used to go out and feed his bull-calf every day with barley bread, and when he did so this time, an old man came up to him— we can guess who that was, eh?—and said to him: “You and your bullcalf had better go away and seek your fortune.”»

«Bo'z bola»da mehribon va yordamga shay echki bosh qaxramonni yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ado etadi. «The Little Bull-Calf»da pari sehrli

⁹⁴Имомов К. Ўғай қиз типдаги туркум эртақларнинг айрим хусусиятларига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 2001, №3 – Б. 43.

kuchlar vositasida o'gay o'g'ilga yordam qo'lini cho'zadi va ziddiyatli vaziyatdan uni qutqarishadi. Shuni aytish joizki, «The Little Bull-Calf»dagi pari sehrni ishga solib yordam qo'lini cho'zsa, «Bo'z bola»dagi jonlantirilgan echki aql va zakovatini ishlatgan holda qahramonga ko'maklashadi. «Bo'z bola»da echki timsoli o'gay o'g'ilni qiyin vaziyatdan xalos etadi, ayni paytda do'stlik hamda hamkorlik timsoli sifatida bosh qahramonni sinash va yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ado etadi, eng asosiysi yovuzlikni qoralab yaxshilik yo'lida turgan kishilarni rag'batlantirish yo'li bilan adolatni qaror toptiradi.

Ikkala ertaklarda ham yordamchi personajlar bo'lib, unda asosan tabiat bo'lagi bo'lmish hayvonot olami vakillari qatnashadilar. «The Little Bull-Calf»da yordamchi personaj, asosan, parranda va chorva shaklida namoyon bo'lsa, «Bo'z bola»da magik kuchga ega bo'lgan echki orqali namoyon bulib, o'gay o'g'ilni ogohlantirish, yo'l ko'rsatish kabi harakat va munosabatlarni ado etadilar. Ikki xalq ertaklariga bo'lgan yana bir o'ziga xoslik shundaki, ertaklar tabiati sehrli voqealar ko'lamini bo'rttiradi, jonlantiradi:

«Echki Bo'z bolani xafa ko'rib:

- Ha, Bo'z bolakay, nega buncha xafasiz?- debdi. »⁹⁵

«The Little Bull-Calf»da:

«“No,” says, the bull-calf, “I’m going across the field, into the wild-wood wilderness country, where there’ll be tigers, leopards, wolves, monkeys, and a fiery dragon, and I’ll kill them all except the fiery dragon, and he’ll kill me..»

Aytish joizki, o'gay qiz va o'g'il turkumidagi ertaklar o'ziga xos xususiyati, nasihatomez motivlari va ta'limiy-didaktik g'oyalari bilan ajralib turadi. Yana ikki ertakdagi o'xshashliklardan biri shundaki, bosh qahramon ideallashtirib olinadi, bir vaqtning o'zida ideallashtirish bilan birga zulm va zo'rlik

qoralanadi. Garchi bu ikki ertak ikki xalqqa tegishli bo'lsada, ertakdagi g'oya va ilgari surilayotgan ezgu fikr adolatning qaror topishiga, mehnatsevarlikka, baxtli yakunga va ezgulikning g'olib bo'lishiga asoslangan:

«Well, he showed the diamond ring with her name on it, and the fiery dragon's tongue. How the others were thunderstruck when he showed his proofs! But the king told him: “You shall have my daughter and my estate.” So he married the princess, and afterwards got the king's estate. Then his step-father came and wanted to own him, but the young king didn't know such a man.»⁹⁶

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Имомов К. Ўғай қиз типигаги туркум эртақларнинг айрим хусусиятларига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 2001, №3
2. Имомов К., Мирзаев.Т, Саримсоқов Б., Сафаров.О. Ўзбек халқ оғзаки

⁹⁵Ўзбек халқ эртақлари. – Тошкент, 2007. – Б. 58

⁹⁶English Fairy Tales And More English Fairy Tales A Joseph Jacobs, by Donald Haase, 305 page

- поэтик ижоди. Дарслик. - Т.: Ўқитувчи, 1990
3. Ўзбек халқ эртақлари. – Тошкент, 2007
4. Andrew Lang, The blue fairy book. 5th ed. –London: Longmans, 1991
5. Joseph Jacobs. English Fairy Tales And More English Fairy Tales. Edited by Donald Haase. Oxford, England, 2002.-P.305

ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ МУНОЖОТ ШЕЪРЛАРИДА ОЛҚИШЛАРНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

*М.Х.Ниязова
(БухДУ),
М.У.Оромова
талаба (БухДУ)*

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек ва инглиз муножот шеърларида олқишларнинг ғоявий-шаклий жиҳатдан ўхшаш хусусиятлари таҳлилга тортилган.

Аннотация: В статье анализируется идейное и формальное сходство благопожелания в узбекских и английских молитвенных стихах.

Abstract : In this article analyzes the ideological and formal similarities of Uzbek and English prayer verses.

Калит сўзлар: олқишлар, дуолар, ўзбек шеърлар, инглиз шеърлар.

Ключевые слова: благопожелание, молитва, узбекское стихотворение, английское стихотворение.

Key words: good wishing, blessings, Uzbek poems, English poems.

Шеърият шарқда асрлар давомида адабиётнинг энг асосий жанри сифатида тан олиб келинган. Шеърият инсон руҳини тетиклаштирувчи, унга олам-олам завқ берувчи табиат инъоми бўлиб, ушбу инъомни ҳар ким ҳам ярата олмайди. Бунга катта истевдод, ноёб қобилият, илҳом ҳамда чуқур билим талаб етилади. Ўзбек шеърияти азал-азалдан шаклланиб келган энг қадимий бадий адабиёт тури ҳисобланади. Унинг ривожланишига қанчадан-қанча шоирларимиз ўз ҳиссаларини қўшганлар.

Ўзбек шеъриятимиз ривожланиб турган бир пайтда, жаҳон шеърияти ҳам ўзига хос тарзда юксалди. Қанчадан-қанча инглиз шоирлари ўзларининг ҳар томонлама мукамал, мазмунли шеърлари ила адабиётларини янада бойитдилар, унинг ривожланишига ўз ҳиссаларини қўшдилар. Лекин ўзбек ҳамда инглиз шеъриятининг бир мунча хусусиятлари бир-биридан фарқ қилади. Ҳозир оддий шеърларни эмас, балки ўзбек ва инглиз муножот шеърларини бир-биридан фарқловчи белгиларини ўзаро таҳлил қиламиз. Муножот шеърлар бу Оллоҳга атаб ёзилган шеърлар ҳисобланади. Ўзбек муножот шеърларини ёзишда атоқли шоиримиз Рауф Парфи ўзининг беназир ҳиссасини қўшган. У ўзининг „Тавба“ номли шеърида Оллоҳга

<i>Ro'ziyeva D.S.</i> Intellectual novel.....	262
<i>Саъдуллаева Л.Б., Бахтиёров А.Ф.</i> “Shirley” асарида реалистик роман хусусиятларининг ифодаланиши.....	265
<i>Usmonova M.A.</i> Asar personajlari va tabiat tasvirida qo`llanilgan leksik-stilistik vositalarning roli va vazifasi.(“The Physician” romani tahlili asosida).....	270
<i>Usmonova Z.Kh.</i> The allegoric characters in Faulkner's “A Fable”.....	274
<i>Ниязова М.Х.</i> Ўзбек алла қўшиқларида олқиш мавзулари.....	278
<i>Ғаниева О.Х.</i> Жон Стейнбек ижоди жаҳон адабиётшунослари нигоҳида.....	281
<i>Очилова Н.Ў., Убайдуллаева Ф.</i> Анималистик адабиётда “от” образи.....	285
<i>Аминова Е.А.</i> Функциональные особенности американского студенческого сленга.....	288
<i>Usmonova Z.H., Tojievа F.K.</i> Mesmerising blend of love, spirituality and religion in the novel of Elif Shafak “Forty rules of love”.....	291
<i>Sadullaeva M.A.</i> Numbers and their symbolic significance in the East.....	293
<i>Djumatayeva N., Bobokhodjaeva Z.</i> Magical items helping main heroes in English fairy tales.....	298

3-ШЎБА: ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ҚИЁСИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМА МУАММОЛАРИ

<i>Маматов А.Э.</i> Провербиальные фразеологизмы как средство формирования навыков межкультурной коммуникации.....	302
<i>Alimova M.Kh., Gaybullayeva Kh.M.</i> Pragmatic approach to the linguo-cognitive analysis of the concept “Father” in the English and Uzbek languages.....	304
<i>Qosimova N.F., Sharipova M.U.</i> Ingliz va o'zbek tillari “rang” komponentli frazeologizmlarida antroposentrizm ifodasi.....	307
<i>Khayrullayeva N., Eshonqulova N.</i> Ingliz va o'zbek tillarida so'zlarning leksik va grammatik ma'nosi qiyosiy tahlili.....	310
<i>Абдуллаева Н.О.</i> Инглиз ва ўзбек тилларида фразеологизмларнинг лингвомаданий хусусиятлари.....	314
<i>Абдуллаева Н.О.</i> Инглиз ва ўзбек тилларидаги мақолаларидан олинган мисоллар асосида стилистик даражаланиш.....	317
<i>Abdullayeva G.G.</i> Yosh tarjimonlarda sinxron tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari.....	320
<i>Ибрагимова Г.Р.</i> Таржимада когнитив диссонанс феномени.....	325
<i>Axmedova S.H., Razoqova K.</i> Ingliz va o'zbek xalq ertaklari qiyosiy tahlili («The Little Bull-Calf» va «Bo'z bola» ertaklari misolida).....	328
<i>Ниязова М.Х., Оромова М.У.</i> Ўзбек ва инглиз муножот шеърларида олқишларнинг қиёсий таҳлили.....	331
<i>Safoyeva S., Abdullayeva D.</i> Tarjima jarayonida ikki tilning o'zaro muqobilligi.....	333
<i>Санакулов З.И.</i> Композитанинг луғатларда акс эттириш тамойиллари.....	336